XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 10-aprel VII-9-56-4-0-K/25 Qashqadaryo viloyati

“Muborakneftgaz - Suvta’minot” MChJ tomonidan iste’molchilarga texnik suv yetkazib berish xizmatlari narxlari (tariflari) to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli Farmoniga asosan hamda “Muborakneftgaz-Suvta’minot” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 18-fevraldagi 25-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-fevraldagi 01-20-10/05-38/260-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 -, 16^2 - va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Muborakneftgaz - Suvta’minot” MChJ tomonidan iste’molchilarga texnik suv yetkazib berish xizmatlari narxlari (tariflari) yuzasidan “Muborakneftgaz-Suvta’minot” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori O.Abdullayevning hisoboti hamda “Muborakneftgaz-Suvta’minot” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 18-fevraldagi 25-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-fevraldagi 01-20-10/05-38/260-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Muborakneftgaz - Suvta’minot” MChJ tomonidan iste’molchilarga texnik suv yetkazib berish xizmatlari narxlari (tariflari) ***ilova***ga muvofiq ma’qullansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi VI-53-219-4-0-K/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi

XUSHMURODOVA
ISMIGUL
BERDIMURODOVNA

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 10-apreldagi
VII-9-56-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Muborakneftgaz - Suvta’minot” MChJ tomonidan iste’molchilarga texnik suv yetkazib berish xizmatlari narxlari (tariflari)

T/R	Xizmat turi	Amaldagi narx (tarif) *(QQSsiz, so‘mda)*	Taklif etilayotgan narx (tarif) *(QQSsiz, so‘mda)*
Texnik suv narxi (tarifi)			
1.	Aholi uchun 1 kub metr texnik suv	1 200,0	1400,0
2.	Budjet tashkilotlari uchun 1 kub metr texnik suv	4 300,0	5000,0
3.	Suvta’minot tashkilotlari uchun 1 kub metr texnik suv	2 400,0	3000,0
4.	Ulgurji iste’molchilar uchun 1 kub metr texnik suv	7 700,0	8600,0